

O‘SMIRLAR XULQIDA BUZILISHLARNING BIOLOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Yaxyoyeva Muhayyo Hikmatullo qizi
Termiz davlat universiteti Amaliy psixologiya
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: Terdu kafedrasi o‘qituvchisi: Kayumova Go'zal

Anotatsiya: Ushbu maqolada O‘smirlar xulqida buzilishlarning biologik va psixologik asoslari hamda deviant xulq - atvor haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Deviant xulq-atvor, xulq buzilishlari, delinkvent xulq, daydilik, erta alkogolizm, seksual xulq deviatsiyasi, Suitsidal xulq.

БИОЛОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ НАРУШЕНИЙ ПОДРОСТКОВОГО ПОВЕДЕНИЯ.

Аннотация: В данной статье рассматриваются биологические и психологические основы нарушений поведения и девиантного поведения

Ключевые слова: девиантное поведение, расстройства поведения, делинквентное поведение, зависимость, ранний алкоголизм, девиация сексуального поведения, суицидальное поведение. подростков.

BIOLOGICAL AND PSYCHOLOGICAL BASIS OF ADOLESCENT BEHAVIOR DISORDERS.

Abstract: This article discusses the biological and psychological foundations of adolescent behavior disorders and deviant behavior.

Key words: Deviant behavior, behavior disorders, delinquent behavior, addiction, early alcoholism, sexual behavior deviation, Suicidal behavior.

Deviant xulq-atvor (lot. Deviatio) deganda, hissiy darajada kuzatilishi va ong darajasida idrok etilishi mumkin bo‘lgan quyidagi fenomenlar nazarda tutiladi:

shaxsning xulq-avtorida konkret jamiyatda shakllangan va umume’tirof etiladigan, rasmiy ravishda qaror topgan sotsial norma (standart, shablon)larga zid keluvchi xatti-harakatlarning namoyon bo‘lishi; jamiyatda rasmiy ravishda qaror topgan sotsial norma (standart, shablon)larga zid keluvchi xatti-harakatlarning ommaviy ko‘rinish (miqyos)larda mujassam bo‘lishi. Biologik omillar. fiziologik va anatomik nuqtai nazardan olganda ijobiy deb baholanishi mumkin bo‘lmagan turli xil xususiyatlar, jumladan, aqliy zaiflikning turli alomatlari, eshitish va ko‘rish

organlarining faoliyatidagi, asab tizimi, nutq, tanadagi nuqsonlar nazarda tutiladi. Psixologik omillar. shaxs xarakterida namoyon bo‘luvchi psixopatologik nuqsonlar, xulq-atvorida kuzatilishi mumkin bo‘lgan aksentuatsiyalar (aksentuatsiya deganda, shaxsning fe‘l-atvori/xarakterida keskin tarzda ifodalanuvchi ayrim sifatlar) nazarda tutiladi. Odatda bu xildagi shaxsiy sifatlar psixologik normaning chegarasidagi yoxud umuman normadan tashqarida namoyon bo‘luvchi fe‘l-atvor/reaksiya ko‘rinishlari hisoblanadi. Shaxs fe‘l-atvoridagi aksentuatsiyalar o‘smirlarning salbiy xarakterdagi reaksiyalarini qo‘zg‘otib yuborishi mumkin bo‘lgan asab kasalliklari, psixopatiya, nevrasteniya kabi ruhiy holatlar, psixologik norma va normadan og‘ish orasidagi (chegaradosh) holatlar zamirida shakllanadi. Ijtimoiy-psixologik omillarning ta‘siri yosh bolalarning ta‘lim-tarbiyasidagi turli xil nuqsonlarning namoyon bo‘lishi bilan ifodalanadi. Odatda bunday noxush holatlar yosh bolalarga ta‘lim-tarbiya berish jarayonlarida ularning jinsiy va individual xususiyatlarini e‘tiborga olmaslik oqibati hisoblanadi.

Ta‘lim-tarbiyaga bu tarzda yondashish pirovard natijada yosh bolalarning ijtimoiylashuv jarayonlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishiga quyidagi shart-sharoitlar sabab bo‘lishi mumkin: balog‘at yoshiga yetmagan jamiyat a‘zolarining individual-psixologik xususiyatlari. Odatda bu xildagi kamchiliklar emotsional-irodaga oid sohada kuzatiladigan nuqsonlar asosida rivojlanadi. Aksariyat hollarda individual-psixologik kamchiliklar, garchi ular patologik tabiat kasb etmasa, oila davrasida beriladigan ta‘lim-tarbiya nuqsonlari hisoblanadi. O‘smirlar xarakterining aksentuatsiyalari deganda, normadan tashqariga chiqmaydigan, ammo shu bilan bir vaqtda fe‘l-atvorda o‘ta kuchli darajada ifodalangan o‘ziga xos jihatlar nazarda tutiladi. O‘smir xarakterining o‘ziga xos jihatlari muayyan turdagi psixogen ta‘sirlar natijasida tubdan o‘zgarishi mumkin, holbuki, shaxs xarakterining boshqa jihatlari odatda bunday ta‘sirlarga nisbatan ancha barqaror. Xarakterida aksentuatsiyalar kuzatiladigan yosh bola va o‘smirlar ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlarga nisbatan vaziyatga mos tarzda munosabat bildirishmaydi. Bu jihatdan olganda, ular odatdagi bolalardan farqlanadi. Bu xildagi yosh bola va o‘smirlarni deviant xulq-atvorli deb bo‘lmaydi, biroq odatda ular ijtimoiy muhitning salbiy ta‘siriga ancha beriluvchan bo‘lishadi. Mutaxassislarining ta‘kidlashicha, xarakterida bir qator aksentuatsiyalar oqibat natijada deviant xulq-atvorning rivojlanishi uchun turtki bo‘lishi mumkin. Odatda balog‘at yoshiga yetmaganlarning fiziologik va psixologik rivojlanishida muayyan

davrda juda kuchli va keskin ichki ziddiyatlar avj oladi. Bunday kuchli psixo-emotsional holatni har kim ham yengilgina boshidan kechira olmaydi. Shu sababdan bunday davrda o‘smirlarning xatti-harkatlarida keskinlik, jizzakilik, qo‘pollik va juda tez xafa bo‘lishlik kabi xususiyatlar kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.Xaydarov, N. Xalilova "Umumiy psixologiya" 247-bet. Toshkent-2010
2. N. Islomoilova, D.Abdullayeva "Ijtimoiy psixologiya" 110-125-betlar O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent - 2013
3. P. Ivanov, M.Zufarova "Umumiy psixologiya" 317-318-betlar O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2008
4. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”:- T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
5. E.E.G‘oziyev – Umumiy psixologiya, Toshkent 2002
6. Gannushkin P.B., 2007; , Leongard K., 2000; Lichko A.Ye., 1983].

Research Science and Innovation House